

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

SENTYABR, 2025-YIL



KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-297-8

O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 69 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 8-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarini birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-297-8

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Normatov Yodgor, Baxodirov Zafar, Tursunov Shodmon

MAPPING TYPICAL IRRIGATED SEROZEM SOILS BASED ON SLOPE LEVEL INDICATORS
USING GIS TECHNOLOGIES 5-8

TARIX FANLARI

Xusanov Ximmat

BUYUK BRITANIYA PROTEKTORATI – MISR BIRINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA 9-11

Kholmatov Shukurillo

ANALYSIS OF RESEARCH ON THE HISTORY OF THE ARAB CALIPHATE OCCUPATION OF
CENTRAL ASIA (BASED ON ENGLISH-LANGUAGE RESEARCH)..... 12-17

IQTISODIYOT FANLARI

Ergasheva Parizoda

IMPLEMENTATION CHALLENGES OF FINANCIAL INFORMATION SYSTEMS IN DEVELOPING
COUNTRIES 18-26

Yuldashev Baxtiyor

MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA ERKIN IQTISODIY
ZONALARNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH 27-30

FILOLOGIYA FANLARI

Zokirova Shaxzoda

TELEVIDENIYE – JAMOAT MULOQOTI MAYDONI SIFATIDA: RITORIK TAHLIL 31-33

YURIDIK FANLARI

Qayumberdiyeva Dildora

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA MEDIATSIYA TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKNI
TAKOMILLASHTIRISH 34-38

PEDAGOGIKA FANLARI

G'aniyev Shaxzod

TARIX O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA RAQAMLI METODIK QO'LLANMALARNI ISHLAB
CHIQISH VA SINOV DAN O'TKAZISH 39-44

Ahmedova Nargiza, Maxmudov Dilshod

SUN'YIY INTELLEKT VA TA'LIM INTEGRATSIYASI: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR 45-48

Khazratova Zukhra

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PROMOTING AUTONOMY LEARNING 49-51

Kumush Xamrakulova

OILA VA MAKTAB INTEGRATSIYASI ORQALI O'QUVCHILARDA MUSTAQIL TA'LIM
KO'NIKMALARINI RIVOJLANТИRISH 52-57

TIBBIYOT FANLARI

Nurmamatova Nigina

DEMENSIYA PROFILAKTIKASIDA ZAMONAVIY PSIXOTERAPEVTIK YONDASHUVLAR VA
INNOVATSION TERAPIYA IMKONIYATLARI: O'ZBEKİSTON SOG'LIQNI SAQLASH TİZİMİDA
İSTİQBOLLAR 58-60

Temirova Umidaixon

НОВЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ДИСМЕНОРЭЮ: ОБЛЕГЧЕНИЕ БОЛИ ПУТЕМ ЗАКРЫТИЯ
ДЕФИЦИТОВ ОРГАНИЗМА 61-63

Solijonova Asalbonu

ATOPIK DERMATIT TARIXI VA OZIQ-OVQAT ALLERGIYASI BILAN BOG'LIQLIGI 64-68

TARIX FANLARI

BUYUK BRITANIYA PROTEKTORATI – MISR BIRINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA

Xusanov Ximmat Zoir o'g'li

Sam DU Tarix fakulteti magistranti

E-mail: xusanovximmat@gmail.com

Tel: +998 99 008 09 47

Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Osiyo uchun Afrika qit'asiga darvoza vazifasini bajaruvchi Misrning Birinchi jahon urushi yillaridagi tarixi diqqatga sazavordir. Birinchi jahon urushi arafasida Misrning Buyuk Britaniya hamda Usmonlilarga mustamlaka bo'lishi, xadivlikdan sultonlikka o'zgarishi. Shuningdek, mazkur voqealarda Misr mahalliy aholisining jasorati, milliy ozodlik kurashining ham muntazam davom etganligi ko'rsatib o'tilgan. Ayrim xadivlarning inglizparast siyosati oddiy xalq turmush tarziga katta salbiy oqibatlarni olib kelishi yoritib o'tilgan. Birinchi jahon urushi yillarida Misr hududining muhim strategik nuqtaga aylanishi va "Misr mehnat korpusi" ning yordami tufayli Buyuk Britaniya ko'plab g'alabalarga erishishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Misr, Buyuk Britaniya, Usmonlilar, Xadiv, Suvaysh, Germaniya, Birinchi jahon urushi, protektorat.

THE BRITISH PROTECTORATE OF EGYPT DURING WORLD WAR I

Khusanov Khimmat Zoir oglu

a master's student at the faculty of history of Samarkand state university

Annotation. The history of Egypt, which served as a gateway for Asia to the African continent, during the First World War is noteworthy. On the eve of the First World War, Egypt became a colony of Great Britain and the Ottomans, and changed from a khadi to a sultanate. Also, these events show the courage of the local population of Egypt, the continuous continuation of the national liberation struggle. It is highlighted that the pro-British policy of some khadi had great negative consequences for the way of life of ordinary people. It is revealed that during the First World War, the territory of Egypt became an important strategic point and that Great Britain achieved many victories thanks to the help of the "Egyptian Labor Corps".

Key words: Egypt, Great Britain, Ottomans, Khedive, Suez, Germany, World War I, protectorate.

1914-yilning iyul oyida boshlangan Birinchi jahon urushi butun dunyo mamlakatlarini, jumladan Misrni ham o'z ta'siri ostiga oldi. Garchi Misr rasman Usmonli imperiyasi tarkibida bo'lsa-da, 1882-yildan beri Buyuk Britaniya protektorati ostida edi. Urush boshlanganida Usmonli imperiyasi Germaniya ittifoqiga qo'shilgach, Buyuk Britaniya hukumati Misr ustidan to'liq nazorat o'rnatish uchun yangi siyosiy choralar ko'rdi. Birinchi jahon urushi yillarida Misr Buyuk Britaniya imperiyasi uchun strategik nuqtaga aylandi, ayniqsa Suvaysh kanali orqali Hind okeanidan Yevropaga bo'lган yo'l muhim ahamiyat kasb etdi.

Urush davomida oziq-ovqat mahsulotlari hamda Misr resurslari Buyuk Britaniya manfaatlari uchun xizmat qila boshladi. Mahalliy aholining ishga jalb etilishi, soliq va iqtisodiy qiyinchiliklar xalq orasida kuchli norozilik tug'dirdi. Iqtisodiy qiyinchiliklar va siyosiy cheklovlar natijasida keyinchalik 1919-yilgi inqilobi ham yuz berdi, bu esa Misr

tarixida mustaqillik sari tashlangan muhim qadam bo'ldi. Shunday qilib, Birinchi jahon urushi Misr tarixida muhim burilish nuqtasi bo'lib xizmat qildi[1; c 27-28].

1914-yilda Usmonli imperiyasi urushga Germaniya tomonidan qo'shilgach, Buyuk Britaniya Misrni rasmiy ravishda Usmonlilardan ajratib, uni protektorat deb e'lon qildi. Misrda xadiv Abbas II lavozimidan chetlatilib, uning o'rniga Buyuk Britaniyaga sodiq Sulton Husayn Komil qo'yildi[2; c 51]. Misr urush davrida Buyuk Britaniya uchun muhim logistika markaziga aylandi. Suvaysh kanali harbiy va iqtisodiy jihatdan strategik ahamiyatga ega bo'lib, uni himoya qilish uchun ko'plab misrliklar harbiy xizmatga jalb qilindi. Buyuk Britaniya hukumati "Egyptian Labour Corps" deb nomlangan yordamchi harbiy kuchni tuzdi, unga o'n minglab misrlik dehqonlar va ishchilar jalb qilindi. Ular Yevropadagi va Yaqin Sharqdagi frontlarda xizmat qilishdi[3; p 71-72].

Misr iqtisodiyoti urush yillarda jiddiy inqirozni boshdan kechirdi. Majburiy safarbarlik, soliqlarni ko'payishi, oziq-ovqat tanqisligi va narxlarning keskin oshishi xalq noroziliginini yanada oshirardi. Misr Birinchi jahon urushi davrida siyosiy jihatdan Buyuk Britaniyaga to'liq bo'ysundirilgan bo'lsa-da, ayni paytda bu davr xalq ongida milliy mustaqillik g'oyalarini uyg'otdi. 1914-yilning dekabr oyida Buyuk Britaniya Misrni rasmiy ravishda o'z protektorati deb e'lon qilishi bilan Usmoniyalar imperiyasi bilan bog'liq barcha yuridik rishtalar uzildi va Misr sultonlik maqomiga ko'tarildi[4; p 2].

Urush sharoitida Buyuk Britaniya Misr iqtisodiyotidan faol foydalanib, uning resurslarini harbiy maqsadlarda safarbar etdi. Bu esa Misrda qashshoqlik, ishsizlik, oziq-ovqat tanqisligi va ijtimoiy norozilikning ortishiga olib keldi. Port Said, Iskandariya va Qohira shaharlarida ochlik namoyishlari kuchayib bordi. Matbuot va ommaviy yig'ilishlar taqiqlanib, harbiy senzura kuchaytirildi. Shuningdek, urush yillarda Misr Suriyadan kelgan qochqinlar oqimi bilan yuzlashdi. Bu esa mamlakatdagi iqtisodiy yukni yanada og'irlashtirdi. Shu bilan birga, Misr matbuoti bu davrda sezilarli taraqqiy etib, arab dunyosida jurnalistik an'analar shakllanishiga katta hissa qo'shdi[5; p 3-4].

Sulton Husayn Komil 1917-yil 9-oktabrda vafot etgach o'rniga o'g'li shahzoda Kamol al-Din (1874-1932) sulton bo'ldi. Chunki u o'z o'rniga o'g'li sulton bo'lism istagini oshkora bildirgan edi, ammo inglizlar Husaynning ukasi Ahmad Fuadni (1868-1936) sultonning o'limidan atigi uch hafta oldin uning merosxo'ri etib tayinlashga ulgurgan edi.

Birinchi jahon urushi davrida urush boshlanishidayoq misrliklar chaqirilmasligi e'lon qilinishiga qaramay, Misr bu urushdagi muntazam ishtiroki hech kimga sir emas. Urush davomida Misr aholisi urushda ishtirok etishgan va tabiiyki, jarohat hamda o'lim kabi mudhish holatlarni boshdan kechirishgan. Hatto ichki hudud fuqarolari ham urush asoratlarini ko'rishdi. Urush jarayonida har qanday holat bo'lmasin, fuqarolik organi hamda xo'jaligini maxsus himoya qilish mumkin emas edi. Dastlab iqtisodiy muammo sifatida paydo bo'lgan muammolar ko'p o'tmay ishsizlik va boshqa bir qancha ijtimoiy muammolar keltirib chiqardi[6; p 10-11].

O'lkada sodir bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlar sekin-asta ishsizlik masalasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. O'rtayer dengizida yuk tashishning to'xtashi hamda Yevropada boshlangan urush ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Natijada o'n minglab mahalliy aholi vakillari ishsiz qolishdi. Buning isboti o'laroq, Iskandariya, Qohira va Port-said shaharlarida 1914-yilning sentabr oyi boshlarida minglab ishsiz bo'lgan aholi non talabi bilan bir qancha

namoyishlar uyshtirishi natijasida, hukumat Yuqori Misrga pul to'ladi. Bundan maqsad, ko'pchilik muhojirlarni qishloq xo'jaligiga qaytadan joylashtirish va qaytarish bo'lgan edi. Shuningdek, Misrga qo'shni bo'lgan Suriya hududidan qochqinlar o'zini o'zi boqish va kun ko'rish niyatida urush davomida mamlakatga kirib kelishi iqtisodiy tanglik holatini yanada og'irlashgan edi. Iqtisodiy inqiroz davrida qishloq xo'jaligi ham tamoman zarar ko'rди. Mahmud Abdel-Fadilning hisob-kitoblariga ko'ra, Misrdagi yer egalarining 91 foizi mayda yer egalari edi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. А. Зайончковский. Мировая война 1914-1918гг. Москва.1938.
2. С. А. Шерстюков. Германская и Османская пропаганда в Египте в годы первой мировой войны. Урал. 2020.
3. Anne-Claire de Gayffier-Bonneville. The First World War from Tripoli to Addis Ababa (1911-1924). Addis-Abeba. 2018.
4. Robert Palmer M.A. British Troops in Egypt. London. 2020.
5. Dr. Stephen Zunes & Jesse Laird. Egyptian Independence: 1919-22. International Center on Nonviolent Conflict. 2011.
6. MAJ Brian, S. Olson, U.S. Army. Withdrawal from Empire: Britain's Decolonization of Egypt, Aden, and Kenya in the Mid-Twentieth Century. London. 2008.

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 8-sentyabr

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 69 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 8-sentyabr

ISBN 978-9910-09-297-8

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.